

**XORAZM VOHASI TOSH DAVRIDA, GEOGRAFIK SHAROITI
O`ZLASHTIRILISHI, HUDUDIY CHEGARALANISHI VA
KARTOGRAFIYASI MASALALARI**

Abdrimova Sultonposhsha Ko`palbek qizi

UrDU Tarix Magistratura talbasi,

E-mail: Abdrimova1809@gmail.com.

Annotatsiya; Maqolada amudaryo ong va sol sohil hududining geografik holati, aholining joylashishi, hududiy chegaralari va etnik munosabatlari tarixini tahlil qilgan.

Kalit soʻzlar: Baratov.P, Mamatqulov.M, Rafiqov.A, Toliberganov.M.SH, Matqurbonova.G.Sh, Yagodina.V.N, Bijanov.E.B, Vinogradova.E.A, Oʻzbekiston, Ustyurt, Quyi Amudaryo, Shoxpaxta, Sulton Uvays togʻi, Yesen 1,2,3, Qoraquduq, Churuk, Burli-3.

Аннотация: В статье анализируется географическое положение правого и левого берегов Нижней Амударьи, история расселения населения, территориальные границы и этнические отношения.

Ключевые слова: Баратов.П, Маматкулов.М, Рафиков.А, Толиберганов.М.Ш, Турсинов.М, Маткурбонова.Г.Ш, Ягодина.В.Н, Бижанов.Е.Б, Виноградова.Е.А, Узбекистан, Устюрт, Нижней Амударьи, Шахпакта, Султан Увайс, Есен-1,2,3, Коракудук, Чурук, Бурли-3.

Annotation: The geographical situation of the right and left banks of the Lower Amudarya river, the history of population settlement territorial boundaries and ethnic relations are analyzed in the article.

Key words: Baratov.P, Mamatqulov.M, Rafiqova.A, Toliberganov.M.SH, Matqurbonova.G.Sh, Yagodina.V.N, Bijanov.E.B, Vinogradova.E.A, Oʻzbekiston, Ustyurt, Quyi Amudaryo, Shoxpaxta, Sulton Uvays togʻi, Yesen 1,2,3, Qoraquduq, Churuk, Burli-3.

Oʻzbekistonning yer yuzasi tuzulishi jihatidan bir biridan farq qiladigan ikki tabiiy geografik hududlardan iborat. Geografiyani fani natijalariga koʻra, Oʻzbekiston quyidagi tabiiy-iqtisodiy hududlarga boʻlingan:

- 1.Ustyurt. Quyi Amudaryo, Qizilqum va Ichki Zarafshon.
- 2.Togʻ oldi va togʻ hududi.

Mazkur maqola mazmunini yoritishda Ustyurt va Quyi Amudaryo hududini geografik muhiti, aholining joylashishi hamda etnik tarkibini oʻrganishni tanlab oldik.

Chunki ikki hudud geologik va geografik mazmumini qizilqum tasvir qiladi¹. Geologik jihatdan birinchi marotaba takrorlanishi natijasida Ustyurt va Xorazm pasttekisliklari hosil bo‘lgan. Ularning geografik o‘rni bir biriga ulanib ketgan, lekin geografik sharoiti jihatidan farqlanish holatlari mavjud. Geografik adabiyotlarda qayd qilinishicha bundan avvalgi 25-10 million yilliklarda Orolbo‘yi, Qizilqum va Sariqamishboyi hududi tekislik bo‘lgan². Ustyurt Xorazm vohasining shimoli-sharqida joylashgan, Mang‘ishloq yarimoroli esa sharqiy Orol dengii oralig‘ida joylashgan. Uning geografik manzarasida tik jarliklar tashkil qilgan, uning egallagan maydoni 200 ming kv km. Ustyurtning yer yuzasi tekislik(90%). Ustyurt relyefi jihatidan shimoliy, markaziy va janubiy hududlarga bo‘lingan. O‘lkamizning boshqa hududlarida farqlanish xususiyati shundaki, tog‘lar mavjud emas, daryolar kesib o‘tmaydi, hamma tomoni ochiq. Janubiy hududning 70.3 ming kv kmi O‘zbekiston Respublikasi tarkibida. Tadqiqotchilarning qayd qilishicha, Ustyurtning janubiy qismi tekislik, 4-yuqori paleazoyning bersen bosqichida tekislik tasvirini olgan³. Ustyurt hududi geografik muhitini nazarga olib, ikki xususiyatni izohlash mumkin.

1. Ijobiy xususiyatlari:

- Tabiiy resurslar mavjudligi. (tabiiy sharoitlar natijasida).
- Joylashgan aholining qo‘shni hududlarga tarix taqozasiga ko‘ra ko‘chishi.
- Sharq va Yevropa aholisi o‘rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalarni tashkil qilgan karvon yo‘li rivojlanishida muhim o‘rin egallagan.

2. Noijobiy xususiyatlari:

- To‘rt tomoni ochiqligi.
- Shimoliy hududdan sovuq havo massalarining shiddat bilan qamrab olishi.
- Janubiy tomondan Qoraqum sochma qumlarining kirib kelishi.
- Odamzotning doimiy suv manbalaridan foydalanish imkonining cheklanganligi.

Ustyurt platosi geografik muhitini aks ettirgan Quyi Amudaryo hududi yuzasi o‘ziga xosligi bilan xaritada o‘z aksini topgan. Quyi Amudaryo hududi Turon pasttekisligining g‘arbida joylashgan. Geologik jarayonlarning bir necha tebranishi natijasida vujudga kelgan tekislik sharqda Qizilqum, janub va g‘arbda Qoraqum, shimolda Orol dengizi bilan chegaralangan. Umumiy egallagan maydoni 50 ming kv km. Hududning asosan ekin-tekislikka qulayligi va botiqlikka ega eganlik xususiyatini izohlash mumkin. Xorazm pasttekisligining geografik muhiti rang-barangligi jihatidan 3 qismga ajratish imkoni mavjud, yani janubiy, markaziy va shimoliy. Mazkur hududning geografik holati, tabiiy resurslari, aholising joylashuvi jihatidan farqlanish holatini kuzatish mumkin. Masalan vohaning shimoliy qismi Sulton Uvays tog‘i,

¹Баратов.П. Узбекистоннинг табиий географияси-Тошкент " Укитувчи", 1996-б.150-162

²Баратов.П, Маматкулов.М, Рафиков.А. Урта Осиё табиий географияси-Тошкент, "Укитувчи", 2002-б.283

³ Толепбергепов.М.Ж., Турсынов.М.Ж, Маткурбонова.Г.Ж Геоэтнологическая оцелка физико-географичееских условий Устыурта. Quyi Amudaryo regionii ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining geografik yechimlari, Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari-2010.

Qoratog‘, Yumurtov va Qubattog‘lar geografik manzarasini tasvir qilgan. Geografik rang-barangligi jihatidan tosh davrida odamzotning joylashish sharoiti arxeologik adabiyotlarda aks etgan tarixiy tadqiqotlarni nazariy qiyosiy tahlil asosida yoritishga harakat qilamiz. Tadqiqotchilar nashrlarida qayd qilingan geografik adabiyotlarga ko‘ra, Ustyurt hududi ilk tosh davri so‘nggi bosqichida, bundan 1 million yil ilgari odamzot kelib joylashib, tabiiy resurslardan foydalanib, geografik sharoitga moslashib, ilk kasb-korlarini belgilab olganlar, bu esa paleolit davrida takomillashib borib etnik jarayonlarni olib borgan. Yuqorida vujudga kelgan noqulay sharoit Ustyurtda ustunlik qilgan bo‘lsa ham odamzod faoliyati erta boshlangan ilk etnik makonga aylangan. Masalan Ustyurtning Shoxpaxta havzasida arxeologik dala amaliyoti davrida ro‘yxatga olingan Yesen 1,2,3, Qoraquduq va Uchtut manzilgohlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar munosabati bilan tosh davri eshel bosqichiga oid moddiy ashyolar olishga erishilgan⁴. Demak, Ustyurt hududi tosh davri quyi bosqichida ilk etnik makon bo‘lgan. E.B.Bijanovning nashrlarida ilk tosh davri ovchi-termachilari miqdori o‘sishi munosabati bilan vujudga kelgan hayotiy muammosini nazarga olib tevarak-atrofga olib borgan ko‘chish jarayoni togrisida fikr-mulohazalarni kuzatish qiyin. Bizning fikrimizcha Churuk, Yesen, Qoraqum manzilgohlarida ovchilarning bir guruh vakillari tevarak atroflarga ko‘chish tadbirini olib borishadi. E.B.Bijanov tomonidan ishlab chiqilgan xaritada shimoliy hududda Churuk manzilgohi ovchilarining yangi avlodlari Ko‘sbuloq, Oqtaylik, Oqtuba, Adjibay va Ko‘lok manzilgohlarida istiqomat qilib, o‘rta tosh davri etnik munosabatlar geografiyasini kengaytirganlar. Bu jarayon so‘nggi tosh davrida davom etgan⁵.

Xorazm ekspiditsiyasi Sulton Uvays tog‘i tevarak atroflarida olib borgan arxeologik qidiruv natijarida ro‘yxatga olingan Burni-3 ochiq tipdagi manzilgohida qazishma ishlarini olib borish natijasida olingan moddiy ashyolar tosh davri so‘nggi bosqichida, mezolit va neolit davri ilk bosqichida odamzotga xizmat qilgan degan xulosani qayd qiladi⁶. Tadqiqotchining Sulton Uvays tog‘i hududini o‘zlashtirilishi masalasida Burli-3 ovchi-termachilari kelgindi yoki tub aholi to‘g‘risidagi xulosasini kuzatish mumkin. Ustyurt hududiga Xorazm vohasi Sulton Uvays tog‘i sharqiy tomondan ulanib ketganini nazarga olib, Ustyurtning janubi-sharqiy hududida joylashgan Churuk-12 manzilgohida ovchilik miqdoriy jihatdan o‘sib borgan bir guruh aholining migratsion tadbirini olib borish jarayonida odamzot tomonidan o‘zlashtirilmagan hududga kelib joylashganlar. Churuklik ovchilar notanish geografik sharoitga moslashib, Sulton Uvays tog‘-kon ashyosidan (kvarsit va Chaqmoqtosh ashyosidan) mehnat qurollariga ishlov berib, ulardan o‘zlarining faoliyatlarida qo‘llab,

⁴ Ягодина В.Н, Бижанов Е.Б Археологические работы на Устюрте//АО – 1973. – С. 193-194. Бижанов Е.Б. Находки памятников палеолита на юго-восточном Устюрте // Вестн. КФАНУзбСССР. – Ташкент, 1979. – № 3. – С. 58-64.

⁵Холматов.Н. Узбекистон неолит даври жамоларининг моддий маданияти тошкент "fan"-2007.В-139.харита.

⁶ Виноградова.Е.А.Первые палеолитические находки Султануиздаче//Приаралье в древности и средневековье//-Науке 1998 - С.74-77.

amaliy kasb-korlarini davom ettirishga imkon bergan degan xulosaga kelish mumkin. O‘zbekistonning boshqa tabiiy-iqtisodiy hududlarida tosh davrida tabiiy g‘or makonlar va ovchi tipdagi manzilgohlarda odamzot istiqomat qilib, etnik jarayonlar geografik kengligini tashkil qilganlar. Misol tariqasida, arxeologik adabiyotlarda qayd qilingan tarixiy malumotlarga ko‘ra shimoliy Zarafshon (Uchtut, Ijjon, Vaush), Toshkent vodiysida (Ko‘lbuloq), Farg‘ona vodiysida (Seleng‘ur) tabiiy g‘or makonlar ovchi termachilar mashg‘ulotlariga xizmat qilgan. Bu jarayon o‘rta, so‘nggi va mezolit davrida davom etgan. Yuqorida qayd qilingan tarixiy-geografik hududda tosh davri quyi bosqichida faoliyat olib borgan ovchi-termachilarning tarixi mavzusini alohida o‘rganishni taqazo etadi. Shu tariqa yuqorida qayd qilingan fikr mulohazalar quyidagi yakuniy xulosaga kelish imkoniyatini hosil qiladi. Ustyurt chinki va Quyi Amudaryo shimoliy hududlari geologik asosi yaxlit, ammo geografik holati xima-xildir. Bu odamzodning joylashuvida o‘z manosini topdi. Ustyurt platosi hamda Sulton Uvays tog‘ hududlari avvalo tekislik bo‘lgan. Miloddan avvalgi 12-mingyilliklarda pleystotsen muzlik jarayoniga yo‘nalib, etnik munosabatlarning geografik chegarasini hosil qilganlar. Mezolit davrida miloddan avvalgi IV-mingyillikda, arafasida etnik jarayonlar kechgan. Biroq muzlik erigandan keyin etnik jarayonlar yangi geografik muhitda davom etgan. Ustyurt platosi va Sulton Uvays ham lk tosh va ilk neolit davri kartografiyasini ishlab chiqish imkonini beradi. Bu hududda ham mazkur jarayonlar keyingi tarixiy davrda davom etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баратов.П. Узбекистоннинг табиий географияси-Тошкент " Укитувчи".
2. Баратов.П, Маматкулов.М, Рафиқов.А. Урта Осиё табиий географияси-Тошкент, "Укитувчи".
3. Толепбергепов.М.Ш , Турсьнов.М.Ж, Матқурбонова.Г.Ж . Геотнологическая оцелка физико-географических условий Устюрта.// Quyi Amudaryo regionini ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining geografik yechimlari, Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari-2010.
4. Ягодин В.Н, Бижанов Е.Б Археологические работы на Устюрте//АО – 1973.
5. Бижанов Е.Б. Находки памятников палеолита на юго-восточном Устюрте // Вестн. КФАНУзбССР. – Ташкент, 1979.
6. Холматов.Н Узбекистон неолит даври жамоларининг моддий маданияти тошкент "fan"-2007.
7. Виноградова.Е.А. Первые палеолитические находки Султануиздаче// Приаралье в древности и средневековье//-Науке. 1998.